

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN
MUHANDISLIK-PEDAGOGIKA INSTITUTI

KASB TA`LIMI FAKULTETI

KASB TA`LIMI (IQTISODIYO) KAFEDRASI

“Davlat budjeti” fanidan kurs ishlarini yozish bo`yicha

USLUBIY KO'RSATMA

5111000-Kasb ta`limi (Moliya) yo`nalishi talabalari uchun

Namangan 2015 yil

Nazariya bilan amaliyotni yaqinlashtirish, bu yuqori malakali iqtisodchi-pedagoglar o`quv jarayonini yangilashning sifat ko`rsatkichini oshirishning asosiy omillaridan biridir.

Ushbu uslubiy ko`rsatma «Davlat budjeti» fanidan kurs ishlarini bajarishga bag`ishlangan bo`lib, kurs ishining mjhiyati, zarurligi, uni bajarish va rasmiylashtirish bo`yicha amaliy yordam beradi.

Muallif:

i.f.n., dots. A.Yuldashev

Taqrizchi:

Iqtisod fanlari nomzodi,
dots.I.Sirojiddinov

Uslubiy ko`rsatma «Binolar va inshootlar qurilishi» kafedrasida ko`rib chiqilib, chop etishga tavsiya etilgan. 6-sonli majlis bayoni, 28 avgust 2015 yil.

Uslubiy ko`rsatma Namangan muhandislik- pedagogika institutining uslubiy kengashida ko`rib chiqilib, chop etishga ruxsat etilgan. 4-majlis bayoni, 31 avgust 2015 yil.

Kirish.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotini erkinlashtirish va iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishda davlat moliyasi va uning muhim bo'g'ini bo'lgan davlat byudjei alohida o'rin egallaydi. Davlat budjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa vazifalarini bajarishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi. Mamlakat moliya tizimini barcha bo'g'inlari bilan budjet – moliya qonunchiligi asosida tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

Ushbu uslubiy ko'rsatma davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishning ahamiyatini, budjet tizimi va budjetlararo munosabatlar tizimi va tamoillarini, budjet daromadlari va xarajatlari tizimining amal qilish tizimi, budjet jarayonlari va budjet nazoratini tashkil qilish masalalarini qamrab oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat budjeti jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishiga sezilarli ta'sirini ko'rsatdi. Budjet tizimi orqali umumdavlat markazlashgan pul fondlari shakllanadi va ulardan maqsadga muvofiq foydalaniladi. Budjet va budjetdan tashqari markazlashgan fondlardan, mablag'lar nafaqat kengaytirilgan takror ishlab chiqarish va ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo'naltiriladi, balki kam daromadli aholini, daromad manbai chegaralangan xizmatchilarni ijtimoiy himoya qilishga, mamlakatni mudofaa qudratini mustahkamlashga va boshqa umumjamiyat tadbirlarni moliyalashtirishda foydalaniladi.

Respublikamizda tarmoqlar iqtisodiyotini bozor xo'jaligiga bosqichma-bosqich o'tilishi, moliya mexanizmida ham tub o'zgarishlarning bo'lishini talab qilmoqda. Jumladan, moliya fanining predmeti hisoblangan moliya munosabatlarida inqilobiy qayta qurish sodir bo'ldi, ya'ni davlat bilan xuquqiy shaxslar o'rtasidagi, turli xil munosabatlar: to'lovlar, ajratmalar o'rniga, bozor

iqtisodiyotining talabi bo'lgan soliq munosabatlari joriy qilindi. Bu islohatlar davlat ixtiyoridagi markazlashgan va xuquqiy shaxslarning markazlashmagan fondlarini shakllanishi va foydalanishiga sezilarli ravishda o'zgartirishlar foydalanishga sezilarli ravishda o'zgartirishlar kiritdi.

Hozirgi davrning rivojlanish talabi moliyaviy resurslarning shakllanishi bilan bir qatorda, ulardan samarali foydalanishni ham qattiq talab qilmoqda. Xo'jalik sub'ektlari ixtiyoridagi moliyaviy resurslari ishlab chiqarishga investitsiyalashtirilsa (intensiv) ijtimoiy-madaniy tadbirlarga yo'naltirilsa, ishchi va xizmatchilarni moddiy rag'batlantirishga sarflansa va boshqa ijtimoiy xarajatlarini moddiy ta'minlansa, qo'yilgan talablarning vaqtida bajarilishini ta'minlanadi.

Bozor iqtisodiyotini yana bir xususiyatli tomoni shundaki, mamlakatda aralash iqtisodni rivojlanishga imkon yaratiladi. Xorijiy mamlakatlar sub'ektlarining moliya resurslarini iqtisodiyotga kirib kelishi, mamlakat moliya tizimini, shu bilan bir qatorda, moliya mexanizmini o'zgarishiga, rivojlanishiga ham olib keladi.

Yuqorida zikr etilgan, moliya tizimi va mexanizmidagi tub o'zgarishlarni xalq xo'jaligiga tadbiiq qilib, ko'zlangan iqtisodiy va ijtimoiy samaraga erishish uchun, albatta birinchidan, moliyaning nazariy vazifalari chuqur o'rganilishi, ikkinchidan, ular amaliyotida sinab ko'rilishi zarur.

Moliya fanidan yozilayotgan kurs ishi nazariy xususiyat ega. Bundan, talaba xarakatdagi qonun materiallariga va iqtisodiy adabiyotlarga tayanib, mustaqil mavzuning mohiyati va mazmunini ochib berishda o'z bilimini ko'rsatadi. Maxsus adabiyotlardan oqilona foydalanishi, talabaga qo'yiladigan baho mezonini oshirishga xizmat qiladi.

Kurs ishini yozishning majburiy sharti bo'lib, aytilgan xulosalarni asoslab berishdir. Hozirgi sharoitda oliy o'quv yurtlari uchun chiqarilgan o'quv qo'llanmalarida, olimlar tomonidan moliyaning mohiyatiga, funktsiyalariga,

tizimiga turlicha yondoshishlar mavjud. Talabalar uchun har qanday ilmiy g'oyani talqin qilish huquqi berilgan. Ammo, talabani aytilgan nuqtai nafari dalillar bilan asoslab berilishi shart.

Mustaqil shug'ullanayotgan talabalarga kafedra mudirining ruxsati bilan ushbu uslubiy ko'rsatmaga kiritilgan kurs ishi mavzularidan tashqari boshqa mavzu berilishi mumkin.

Talabalar ayrim qiziqarli va ahamiyatli kurs ishlarini, shu mavzularga ta'luqli bo'lgan seminar dasrlarida, kafedra mudirining ruxsatidan so'ng, dars paytida himoya qilish imkoniyatiga ega. Qolgan kurs ishlari tasdiqlangan grafik bo'yicha himoyaga qo'yiladi.

Kurs ishini asosiy baholash mezonini bo'lib, ko'rsatilgan adabiyotlardan to'liq foydalanish hisoblanadi. Ushbu uslubiy ko'rsatmaning oxirida «Moliya» kursi bo'yicha asosiy va yordamchi adabiyotlar ro'yxati ko'rsatiladi.

Talabalarning kurs ishi mavzularini tanlash ixtiyoriydir. Bir xil mavzudagi kurs ishini ikki talaba olishi rag'batlantirilmaydi. Lekin, kurs ishiga rahbarlik qilayotgan o'qituvchilar va kafedra mudirining roziligiga binoan, ikki talabaning bir mavzuda kurs ishini yozishiga va himoya qilishiga ruxsat berilishi mumkin.

Fanni ishlab chiqarishdagi o'rni

Davlat budjeti davlat moliya tizimining asosini tashkil qiladi. Davlat budjetining iqtisodiy tuzilishi va mazmuni bevosita davlatning funktsiya va majburiyatidan kelib chiqadi. Chunki davlat jamiyatni boshqarish uchun o'z oldiga qator vazifalarni qo'yadiki, ularni moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlashda davlat budjeti asosiy o'rinni egallaydi.

Davlat budjeti mamlakatda yaratilgan YaIM ning qiymatini qayta taqsimlash quroli sifatida amal qiladi. Davlat budjeti markaziy hukumatga xizmat qilishi bilan bir qatorda davlat moliyaviy resurslarini qayta taqsimlashda ham bevosita ishtirok etadi.

Milliy iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda, har bir davrning ustivor taraqqiyot vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishda davlatning boshqa iqtisodiy instrumentlari qatori, davlat budjeti ham muhim ahamiyat kasb etadi va ma'lum vazifalarni bajaradi. Bu vazifalarni samarali bajarilishi tegishli budjet mexanizmining ishlab chiqilishi va amal qilishi bilan ta'minlanadi.

Kurs ishining vazifalari.

Kurs ishining «Davlat budjet» fanini mustaqil o'rganishdagi muhim ahamiyati shundaki, talabalar adabiyotlar bilan ishlashni, ma'lumotlar to'plash, ularni jadval va diagrammalarda tasvirlash, xulosa chiqarish va o'tilgan masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon qilishga o'rganishadi. Ana shu jarayonda talabalar o'zlari induktiv va deduktiv uslublarni qo'llab, alohida hodisa va voqealar aossida umumiy xulosa chiqarishni o'rganadilar.

Kurs ishi talaba tomonidan tanlanadi, uning hajmi 35-40 betga (standart yozuv qog'ozi bo'yicha) mo'ljallanadi. Bu mavzuni har tomonlama chuqur o'rganib, o'z qobiliyatini fanni o'zlashtirishdagi harakatini, intilishini ifodalash imkonini beradi. Kurs ishiga kafedradan ilmiy rahbar tayyorlanadi. U talabalarga kurs ishini tayyorlashda zaruriy maslahatlarni beradi:

- Kurs ishining mavzusi faqat darslik doirasida emas, balki qo'shimcha adabiyotlar, shu mavzu bo'yicha jurnal, gazetalardagi maqolalardan foydalanib yoziladi;
- Kurs ishida ilmiy izlanish elementlari, nazariy qoidalar tajribalar bilan yoritiladi;
- Ish bo'yicha reja tuziladi, reja tarkibi: kirish, asosiy qism (yoritilishi kerak bo'lgan masalalar), xulosa va foydalangan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'ladi;

- Kurs ishi rasmiy qabul qilinadigan shaklda bo'lishi kerak, ya'ni biror bir muallifning fikri keltirilsa, jumlarlar o'zgartirilmaydi, qanday bo'lsa shunday ko'chiriladi va qo'shtirnoq ichiga olinadi, izoh beriladi. U sahifaning eng tagiga nomerlangan holda berilib, olingan manba ko'rsatiladi. Unda havola qilingan muallif, asar yoki maqolaning, nashriyotning nomlari, nashr qilingan muallif, asar yoki maqolaning nashr qilingan yili beriladi;
- Matn mustaqil yoziladi. Talaba kurs ishi yozishda o'rganayotgan adabiyotlardan to'g'ridan-to'g'ri ko'chirmay, avval o'qib chiqib, tushunib, boshqalari bilan taqqoslab, so'ngra o'zining fikrini bayon qilmog'i lozim.

Kurs ishini yozish jarayoniga qo'yiladigan talablar.

Kurs ishiga qo'yilgan bosh talab-fanni chuqur o'rganishga erishish, ilmiy izlanishga havas uyg'otishdan iborat.

Kurs ishida talabalarda mavzuni o'rganishgajodiy yondashish, dastlabki ilmiy izlanish kurtaklarini hosil qilishda kurs ishi rahbari muhim rol o'ynaydi. Kurs ishi rahbari asosiy va ho'shimcha adabiyotlarni tanlash, ular ichidan eng muhimlarini ajratish, reja tuzish va tanlangan mavzuni to'la ochib berish uchun nimalarga diqqat qaratish kerakligi haqida maslahat beradi.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojaat qiladi. Mavzu bo'yicha ayrim adabiyotlarni to'liq o'qib chiqish, zarur bo'lsa, ayrimlarini mavzu bo'yicha u yoki bu bobi yoki sahifasini o'qishga, o'rganishga to'g'ri keladi.

Talabalar kurs ishini bajarishlarida kurs ishiga qo'yiladigan talablarga alohida e'tibor qaratishlari kerak. «Davlat budjet» fanidan kurs ishiga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. «Moliya» fanidan kurs ishini yozishni talabalar tanlagan mavzuga bag'ishlangan maxsus va yordamchi adabiyotlar bilan tanishishdan boshlashi kerak. Bunda talaba tanlagan mavzuni ilmiy tahlil qilib va mantiqan asoslab, kurs ishida rejalashtirilgan savollarni mazmunini to'liqroq ochib berish lozim. Masalan, agar kurs ishi «Moliya tizimini tarkibiy sohalari» mavzusida bo'lsa, unda talaba nafaqat moliya tizimini, balki sohalari bo'yicha har xil ilmiy qarashlarni mavjudligini tahlil qilishi kerak. Talab shundaki, talaba har bir soha va undagi bo'g'inlarga keng holatda tavsif berishi ham lozim. Sug'urta sohasining alohidaligini aniqlab berib, uni davlat moliyasi sohasini tarkibiy qismi emasligini va aksini ko'rsata berishi lozim va shunga o'xshashlar.
2. Kurs ishini tuzilish, ko'riladigan savollar tartibi kurs ishiga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining roziligi bilan amalga oshiriladi.
3. Kurs ishini varaqlar soni chegarlanmaydi, biroq 35 betdan oshmasa, maqsadga muvofiq bo'ladi.
4. Ishning yozilishi jarayonida, ish rejasi, kirish, ishning mazmuni, qisqacha xulosa va foylanilgan adabiyotlar berilishi lozim.
5. Titul varag'i quyidagi ko'rinishda rasmiylashtiriladi. (1-ilovaga qarang)
6. Kurs ishini kafedraga topshirish belgilangan muddatdan kechiksa, u faqat kafedra mudirining ruxsati bilan qabul qilinadi.
7. Kurs ishlarini himoya qilish, kafedra mudiri tomonidan tayinlangan hay'at a'zolari oldida amalga oshiriladi.
8. Talabaning tanlangan kurs ishi, uning keyingi diplom ishi uchun ham asosiy material bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Talabadan kurs ishida fanda yangilik yoki ilmiy qoida yaratish talab etilmaydi. Talaba savollarni yoritish jarayonida ilmiy adabiyotlardan tushunib

foydalanganligini, to'g'ri umumlashtirib, xulosa chiqarib bilishini, nazariy qoidalarni tajriba, amaliyot bilan bog'lay olishini qo'rsatish lozim bo'ladi.

Ana shu jarayonda talabaning ishida ilmiy izlanish elementlari, kurs ishini yozishda mustaqil iqtisodiy fikrlay olishlari namoyon bo'ladi.

Ishda yo'l qo'yilgan xato-kamchiliklarni farqlay olsh kerak bo'ladi. Xato bu iqtisodiy kategoriyalarni va qonunlarni noto'g'ri tushunish yoki yaxshi tushunmaslik sababli kelib chiqadi. Kamchiliklar talabaning iqtisodiy kategoriya haqida tushunchasi bor, lekin to'la emasligi, ko'pincha muhim nazariy qoidalarni ahamiyatini yetarlicha tushunmasligi tufayli kelib chiqadi. Shuning uchun ham talabaga o'qituvchining maslahati katta yordam beradi.

“Kasb ta'limi” bakalavriat yo'nalishi talabalari kurs ishi yozishga alohida e'tibor qaratishlari lozim. Sababi, ular kurs ishini birinchidan, fanni o'rganayotgan talaba sifatida, ikkinchidan kelgusida o'qituvchi-kurs ishi rahbari sifatida bajaradilar. Shuning uchun ham kurs ishi bajarishning barcha talablariga alohida diqqat qaratish zarur barcha iqtisodiy yo'nalish talabalari, shu jumladan bo'lg'usi iqtisodchi-pedagoglar ham 1-kursda “Iqtisodiyot nazariyasi” fanidan, keyingi kurslarda mutaxassislik fanlaridan, “Kasb ta'limi” yo'nalishi talabalari 2-kursda “Moliya» fanidan, 4-kursda “Moliyaviy menejment” fanidan kurs ishi yozadilar.

Kurs ishining xomaki nusxasini yozayotganda talaba tushunmagan savol yoki maslahat uchun rahbarga murojaat qiladi. Mavzu bo'yicha ayrim adabiyotlarni to'liq o'qib chiqish, zarur bo'lsa, ayrimlarini mavzu bo'yicha u yoki bu bobi yoki sahifasini o'qishga, o'rganishga to'g'ri keladi.

Kurs ishiga qo'yilgan savollar o'rganilayotgan mavzuning mazmunini ochib berishi zarur. Savollar ko'p bo'lmasligi, mavzuning mazmunini ochib berishi lozim. Reja asosida qaysi adabiyotlar bilan ishlash ko'rsatiladi. Masalan, “Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning O'zbekiston

Respublikasi moliya tizimida tutgan o`rni” mavzusidagi kurs ishiga quyidagicha reja tuzish mumkin:

Mavzu: Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning O`zbekiston Respublikasi moliya tizimida tutgan o`rni.

Kirish.

- 1. Davlat budjeti va uning iqtisodiy mazmuni va mohiyati.**
- 2. Davlat budjetining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishdagi ahamiyati.**
- 3. Davlat budjetining tarkibiy tuzilishi.**
- 4. Davlat budjetining moliya tizimida tutgan o`rni.**

Xulosa.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati.

Kurs ishining kirish qismida tanlangan mavzuning ahamiyati, fanni o`rganishda tutgan o`rni, ko`rilayotgan masalaning dolzarbligi, uni amaliyotga qo`llashdagi ahamiyati ko`rsatiladi.

“Kirish” qismida tanlangan mavzu bo`yicha nima maqsad qo`yilganini qisqacha bayon qilish lozim. “Xulosa” qismida mavzu bo`yicha chiqarilayotgan asosiy xulosalar ishning qadr-qiymatini oshiradi. Talabaning mavzuni chuqur o`zlashtirganidan, uni yaxshi bilimga ega bo`lganligini anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatida kurs ishi yozishda talaba tomonidan o`rganilgan barcha adabiyotlar, jurnal va gazetalarda berilgan maqolalar, monografiya, statistik to`plam va boshqalar to`la ravishda muallifning ismi-sharifi, asar yoki maqola va boshqalarning nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili ko`rsatilgan bo`lishi kerak.

Kurs ishini bajarish jarayonida Respublika Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan qonunlar, me`yoriy hujjatlardan, Prezidentimiz asarlaridan foydalanishga alohida ahamiyat berish lozim.

Talabadan kurs ishida fanda yangilik yoki ilmiy qoid yaratish talab etilmaydi. Talaba savollarni yoritish jarayonida ilmiy adabiyotlardan tushunib foydalanganligini, to`g`ri umumlashtirib, xulosa chiqarib bilishini, nazariy qoidalarni tajriba, amaliyot bilan bog`lay olishini qo`rsatish lozim bo`ladi.

Ana shu jarayonda talabaning ishida ilmiy izlanish elementlari, kurs ishini yozishda mustaqil iqtisodiy fikrlay olishlari namoyon bo`ladi.

Ishda yo`l qo`yilgan xato-kamchiliklarni farqlay olsh kerak bo`ladi. Xato bu iqtisodiy kategoriyalarni va qonunlarni noto`g`ri tushunish yoki yaxshi tushunmaslik sababli kelib chiqadi. Kamchiliklar talabaning iqtisodiy kategoriya haqida tushunchasi bor, lekin to`la emasligi, ko`pincha muhim nazariy qoidalarni ahamiyatini yetarlicha tushunmasligi tufayli kelib chiqadi. Shuning uchun ham talabaga o`qituvchining maslahati katta yordam beradi.

Kurs ishining mavzulari.

1. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va uning O`zbekiston Respublikasi moliya tizimida tutgan o`rni.
2. Davlat budjetining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishdagi ahamiyati.
3. Davlat budjetining funktsiyalari va ular amal qilishining hozirgi zamon xususiyatlari.
4. O`zbekiston Respublikasida davlat budjeti va budjet tizimining rivojlanish tarixi.
5. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida budjet siyosatining asosiy yo`nalishlari.
6. O`zbekiston Respublikasida budjet qurilishi va budjet tizimi.
7. O`zbekiston Respublikasi budjet tizimida respublika budjetining o`rni va ahamiyati.

8. O'zbekiston Respublikasi budget tizimida mahalliy budgetlarning o'rni va ahamiyati.
9. Bozor iqtisodiyoti sharoitida budget tizimini boshqarish.
10. Davlat budgeti daromadlari va ularni barqarorlashtirish istiqbollari.
11. Davlat budgetining solikli daromadlari, ularning tarkibi va tuzilishi.
12. Davlat budgetining soliqsiz daromadlari, ularning tarkibi, tuzilishi va ahamiyati.
13. Davlat budgeti xarajatlari tizimi.
14. Mahalliy budgetlar (viloyat, shahar, tuman) daromadlari tizimi, ularni barqarorlashtirish masalalari.
15. Mahalliy budgetlar (viloyat, shahar, tuman) xarajatlari tizimi, ularni optimallashtirish masalalari.
16. Mahalliy budgetlar daromadlarining shakllanishida umumdavlat soliqlari hamda mahalliy soliq va yig'implarning o'rni va ahamiyati.
17. Budget taqchilligi va uni boshqarish.
18. Budget taqchilligini boshqarish va tartibga solish masalalari.
19. Budget tasnifining mohiyati, ahamiyati va hozirgi zamon xususiyatlari.
20. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida budget istiqbollarini belgilash masalalari.
21. Budget tizimi bo'g'inlari o'rtasida daromad va xarajatlarni taqsimlash asoslari.
22. Davlat budgetining iqtisodiyot xarajatlari, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida ularning ahamiyati.
23. Ijtimoiy-madaniy sohalarni moliyalashtirishda davlat budgetining roli va ahamiyati.
24. Budget tashkilotlari xarajatlarini smeta asosida moliyalashtirish asoslari.
25. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xalq ta'limi xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.

26. Ta'lim sohasidagi islohotlarni moliyaviy ta'minlash masalalari.
27. Maktab ta'limini rivojlantirishning moliyaviy masalalari.
28. Umumta'lim maktablari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari.
29. O'rta maxsus (kasb-hunar) o'quv yurtlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari.
30. Akademik litseylar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari.
31. Oliy o'quv yurtlari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish asoslari.
32. Maktabgacha tarbiya muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
33. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida madaniyat sohasini budjetdan moliyalashtirish.
34. Madaniy-oqartuv muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish.
35. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida davlat sog'liqni saqlash tizimini moliyalashtirish masalalari.
36. Sog'liqni saqlash muassasalari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari.
37. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar sharoitida shifoxona xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirishning xususiyatlari.
38. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlarni moliyaviy ta'minlash masalalari.
39. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xarajatlarini moliyalashtirish.
40. Ijtimoiy ta'minot xarajatlarining tarkibi, tuzilishi va ularni moliyalashtirishda budjetning o'rni va ahamiyati.
41. Aholini ijtimoiy muhofaza qilishda davlat budjetining o'rni va ahamiyati.
42. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida aholini ijtimoiy muhofaza qilishning zarurligi va moliyaviy manbalari.

43. Davlat boshqaruv organlari xarajatlarini rejalashtirish va budjetdan moliyalashtirish asoslari.
44. Davlat budjetining tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha daromad va xarajatlari.
45. Fanni rivojlantirishda davlat budjetining o'rni va ahamiyati.
46. O'zbekiston Respublikasida budjet qurilishi va budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish.
47. Budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasidagi budjetlararo munosabatlar shakllari va ularni takomillashtirish masalalari.
48. Soliqlarni budjet tizimi bo'g'inlari o'rtasida taqsimlash mexanizmi va uni takomillashtirish.
49. O'zbekiston Respublikasida budjet jarayoni va uning bosqichlari.
50. O'zbekiston Respublikasida budjet jarayonini tashkil etish asoslari.
51. O'zbekiston Respublikasida budjet jarayonini boshqarish va tartibga solish organlari, ular faoliyatini muvofiqlashtirish.
52. O'zbekiston Respublikasida budjetni tuzish va ijro etishda davlat moliyaviy nazoratini tashkil etish.
53. Budjet nazoratini tashkil etish va uning ta'sirchanligini oshirish masalalari.
54. Budjet jarayonini tashkil etishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining o'rni va ahamiyati.
55. Davlat budjeti daromadlarining shakllanishini nazorat qilishda davlat Soliq qo'mitasining o'rni va ahamiyati.
56. O'zbekiston Respublikasida budjet ijrosini tashkil etishda g'aznachilik faoliyatining zarurligi, xususiyatlari va ahamiyati.
57. Jamlanma budjet, uning tarkibi, tuzilishi va xususiyatlari.
58. Xorijiy davlatlar budjet tizimi va budjet jarayoni.
59. Amerika qo'shma Shtatlari davlat budjeti, budjet tizimi va budjetlararo munosabatlarning xususiyatlari.

60. Germaniya Federativ Respublikasi davlat budjeti, budget tizimi va budgetlararo munosabatlarning xususiyatlari.
61. Buyuk Britaniya davlat budjeti, budget tizimi va budgetlararo munosabatlarning xususiyatlari.
62. Yaponiya davlat budjeti, budget tizimi va budgetlararo munosabatlarning xususiyatlari.
63. Ekologik muammolarni hal qilishda davlat moliyasining o`rni va ahamiyati.
64. Budget ijrosini nazorat qilishda Moliya vazirligi qoshidagi Nazorat-taftish Boshqarmasining o`rni va ahamiyati.
65. Mahalliy budgetlar ijrosini ta`minlashda mahalliy moliya organlari faoliyatining xususiyatlari.
66. Davlat budjeti barqarorligini ta`minlashda davlat qimmatli qog'ozlarining o`rni va ahamiyati.
67. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida davlat maqsadli fondlari va ularning taraqqiyot muammolari.
68. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida budgetdan moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari.
69. Mahalliy budgetlarning tartibga soluvchi daromadlari va ularni barqarorlashtirish yo`nalishlari.
70. Davlat budjeti taqchilligining mohiyati, omillari va uni boshqarish usullarini takomillashtirish.
71. Hukumatning qonunchilik-ijroiya institutlari va ularning davlat budjetini boshqarish sohasidagi funktsiyalari.
72. Aholini ijtimoiy himoya qilishda davlat budjetining o`rni va ahamiyati.
73. Maxalliy budgetlarning barqaror daromad bazasini yaratish masalalari.
74. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida oliy o`quv yurtlarini moliyalashtirishni takomillashtirish masalalari.

75. Maxalliy budjetlarning davlat ijtimoiy siyosatini amalga oshirishdagi ahamiyati.
76. Iqtisodiyotning erkinlashuvi sharoitida mahalliy budjetlarning daromad va xarajatlarini tartibga solish.
77. Davlat maqsadli fondlari, ularning davlat moliya tizimidagi o`rni va ahamiyati.
78. Respublika Yo`l fondi, uning vazifalari, ahamiyati, daromad va xarajatlari tarkibi va tuzilishi.
79. O`zbekiston Respublikasi Pensiya fondining daromad va xarajatlari, davlat moliya tizimidagi o`rni va ahamiyati.
80. Maktab ta`limi Respublika fondi, uning ahamiyati, daromad va xarajatlarining tarkibi va tuzilishi.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxati

Asosiy adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston. 2012.
2. O'zbekiston Respublikasining «Korxona to'g'risida» gi qonun. –Toshkent: O'zbekiston. 1992.
3. O'zbekiston Respublikasining Solik kodeksi - Toshkent: O'zbekiston. 1997.
4. O'zbekiston Respublikasining «Bankrotlik to'g'risida» gi konuni.- Toshkent: O'zbekiston. 1998
5. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo'lida. - Toshkent: O'zbekiston. 1995.
6. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. .- Toshkent: O'zbekiston. 1998
7. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. .- Toshkent: O'zbekiston. 1996
8. Malikov T.S. Olimjonov O. Moliyaviy menejment. .- Toshkent: Akademiya . 2000.
9. Yuldashev A. va boshqalar. Moliyaviy menejment. O'quv qo'llanma, T.: Voris, 2013
10. Beganov V.S., Abdullaev Sh.X. va boshqalar. Moliya siyosati, soliklar va solik solish. Toshkent. 1998.
11. Radionova V.M. Finansy. Moskva «Finansy statistika». 1995
12. Karimov I. Yuksak ma'naviyat-engilmas kuch. T. Ma'naviyat nashriyoti 2008 y.
13. Karimov I. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo'llari va choralari. T. O'zbekiston 2009 y.
14. Vaxabov A., Srijiddinova G. Gosudarstvenny budjet. Uchebnik. T. Iqtisod va moliya, 2006.

15. Malikov T., Xaydarov N. Budget (tizimi, tuzilmasi, jarayoni). O`quv qo`llanma. T. Iqtisod va moliya, TMI-2008.
16. Malikov T., Xaydarov N. Davlat budjeti. O`quv qo`llanma. T. Iqtisod va moliya, TMI-2007.
17. Malikov T., Xaydarov N. Budget daromadlari va xarajatlari. O`quv qo`llanma. T. Iqtisod va moliya, TMI-2007.

Qo`shimcha adabiyotlar.

1. Vahobov A., Qosimova G., Jamalov X. Budget-soliq siyosati yaxlitligi. O`quv qo`llanma. T. Iqtisod va moliya, 2005.
2. Qosimova G. G'aznachilik faoliyatini tashkil etish. O`quv qo`llanma. T. Iqtisod va moliya, 2005.
3. Qosimova G. Mahalliy budjetlarni tuzish va ijrosini ta'minlash. O`quv qo`llanma. T. Fan va texnologiya, 2007

Kurs ishi titul varaq'i rasmiylashtirilishi.

O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

Namangan
muhandislik-pedagogika instituti

Kasb ta'limi fakulteti

Kasb ta'limi (Iqtisodiyot) kafedrası

«Davlat budjet» fanidan

«_____» mavzusida

KURS ISHI

Talaba: Ismi va familiyasi, guruhi

Ilmiy rahbari: Unvoni, ismi va familiyasi

Namangan 2015

